

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” HAMDA JALOLIDDIN RUMIYNING “MASNAVIY” ASARLARIDAGI DIDAKTIK HIKOYALAR TAHLILI

Yangiboyeva O‘g‘iloy Hasan qizi
Iqtisodiyo va pedagogika NTM Samarqand kampusi
2-bosqich talabasi
Berdiyev Xusan Xolnazarovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson ma’naviyati tarbiyasi, umrning qadriga yetish, har bir fursatdan unumli foydalanish, insonlar bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishi, birovning haqqiga hiyonat qilmaslik, hamma narsani o‘z vaqtida qadriga yetish, barvha narsa ham asli kabi bo‘lavermasligi, hayotga yengil ko‘z bilan qaramaslik, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi, shogirdning ustozga bo‘lgan munosabati, do‘stlikning haqqi, hamma joyda insoniylik vijdoni bilan ish ko‘rish kerakligi haqida tasvirlangan asarlar bayonoti.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, tarbiya, farzand, shogird, ustoz.

Kaykovusning “Qobusnoma” hamda Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asarlarida bir-biriga o‘xshash voqealar tasvirlangan. Ikki asar ham tarbiyaviy jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Kaykovusning “Qobusnoma” asari farzandlarga bag‘ishlangan bo‘lib, qirq to‘rt bobdan iborat. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asarida esa qirq rivoyatga qirq sharh berilgan. Bunda ham inson dunyoqarashi, fikrlashi bayon qilingan.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarining to‘qqizinchi bobida “Qarilik va yigitlik sifati zikrida” shunday rivoyat qilinadi. “Ey, farzand har nechun yigit bo‘lsang ham aqling qari bo‘lsin. Men senga: “Yigitlik qilmag‘in demasman, ammo yigitlikni chidam bila qilg‘il. Yingil yigitlardan bo‘lmag‘il, chunki yigitlarga og‘irlik

munosibdur. Aristotolis donish shunday debdur: “ Yigitlik jununning bir navidur”. Johil yigitlardin bo‘lmag‘il, johillikdin balo paydo bo‘lg‘usidur. Yigitlik zamonida zindagonlik qil, tokim qarig‘on chog‘da o‘z holingg‘a yig‘lamag‘il. Har qancha yosh bo‘lsang ham hech vaqtda o‘limdin bexabar bo‘lmag‘il. Nedinkim o‘lim na qarini va na yigitni qo‘yg‘usidur. Hamma vaqt yigitlar bilan suhbatda bo‘lmag‘il , qarilar bila ham suhbatda bo‘lg‘in va majlisingni ham qarilar bila ham yigitlar bila qilg‘il, chunki yigitlar bilmagan narsani qarilar bilar. Yigit kishi o‘zini hamma kishidan donoroq bilur shul sabab ishi bila u barchadin nodonroqdur”.

Masnaviyning o‘n oltinchi darsida “Qarining shikoyati” hikoyasida shunday voqealar tasvirlangan. Qari bir odam do‘xtir oldiga kelib, shikoyatini sanay boshladi.

-Do‘xtir, ishtaham yo‘q, aqlim ham joyida emas.

- Aql, xotira zaifligi, ishtahasizlik qarilikdan deydi do‘xtir.

Oralaridagi suhbat shunday davom etdi.

-Ko‘z oldim qorong‘ulashadi.

-Qarilik alomati bu.

-Yilkam zirqirab og‘riydi.

-Voy bechora bu ham qarilikdan.

-Nima yesam botmaydi, hazim qilolmayapman.

-Me‘da zaifligi ham qarilikdan.

-Nafas olishga qiynalaman, nafasim qisiladi

-Bu ham qarilik asorati, qarigach insonda yuz xil dard boshlanadi

Nihoyat, qariya chidayolmay baqira ketdi

-Hoy baraka topkur, Alloh har dardning bir darmoni deb tursa-yu nega to‘tiqushga o‘xshab hadeb bir narsanitakrorlaysan?! Es-hushing joyidami o‘zi?! Qayerdan yo‘liqdim-a senga?!

Do‘xtir yana kulib javob berdi.

-Ey yoshi oltmish ishi bitmish do‘stim, bu qahr-g‘azab ham qarilikdandir.

Mavlono hikoya davomida shunday deydi: “ Keksaygach insonning hamma a’zolari zaiflashadi, mo’rtlashadi. Sabri ham kamayadi. Qari odam ikki og‘iz so‘zga ham sabr qilmaydi, baqirib beradi. Bazan bir qultum suvni ham yutolmaydi.

Asosiy masala qarilikni qanday qarshi olishimizda, qahr-g‘azab , jahl va isyon bilan qarshilasak yanada ko‘p zarar ko‘ramiz. Tabiiy qabul qilib shynga ko‘ra chora-tadbir ko‘rsak yanada saodatli bo‘lamiz. Shuni unutmasligimiz kerakki, har yoshning zavq oladigan jihatlari bor. Qarilikning ham o‘ziga yarasha yaxshi tomonlari bor. Xususan, bilim tajribalari, fikrlash, dunyoqarashlari to‘g‘ri qaror berish qobiliyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент, 2024.
2. Румий Ж. Маснавий. – Тошкент, 2024.